

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 5



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

| | | |
|----|---|----|
| 1 | Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI..... | 7 |
| 2 | Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUJJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI..... | 13 |
| 3 | Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH..... | 15 |
| 4 | Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK..... | 19 |
| 5 | Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ..... | 23 |
| 6 | Narziyeva Inobat Zoirovna. O'ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI..... | 27 |
| 7 | Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI..... | 31 |
| 8 | Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОВА..... | 36 |
| 9 | Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ..... | 42 |
| 10 | Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O'ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVALENTLIK MASALASI..... | 46 |

TARIX

| | | |
|----|---|----|
| 1 | Babadjanov B. "O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G'OYAVIY ASOSLARI"..... | 51 |
| 2 | Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li XIVA XONLIGI QOZILIK HUJJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI..... | 55 |
| 3 | Atayeva Dilfuza Pulatovna. O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH..... | 57 |
| 4 | Babadjanov B. "O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI"..... | 61 |
| 5 | Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA'ZI MULOHAZALAR..... | 65 |
| 6 | Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI..... | 71 |
| 7 | Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI..... | 75 |
| 8 | Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)..... | 82 |
| 9 | Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ..... | 88 |
| 10 | Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI..... | 94 |

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich

Ma‘mun universiteti,

Iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasida dots.v.v

Niyozmetov Doniyor RejabbayevichE-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchisi

Bekbergenov G‘ayrat ShuxratovichE-mail: gayrat.bekbergenov@gmail.com**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI
SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH
OMILLARI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707614>

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda raqamli fiskal boshqaruvning davlat budjeti shaffofligini kuchaytirish hamda davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirishdagi roli tizimli tahlil qilinadi. OpenBudget platformasidagi hisobotlar va “sayyor-monitoring” mexanizmlari orqali budjet mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va ijrosi bo‘yicha ochiqlikning amaliy natijalari yoritiladi. Budjet kodeksida belgilangan nazorat institutlari (Hisob palatasi, moliya organlari, g‘aznachilik) vakolatlari bilan uzviy bog‘liqlikda shaffoflik va nazoratni baholash uchun o‘lchovli indikatorlar taklif etilib, ijro intizomi va hisobdorlikni kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli fiskal boshqaruv, budjet shaffofligi, Open Budget, g‘aznachilik, nazorat, Hisob palatasi.

Аннотация. В статье проводится системный анализ роли цифрового фискального управления в Узбекистане в повышении прозрачности государственного бюджета и эффективности государственного финансового контроля. На основе отчетности платформы OpenBudget и механизмов «выездного (мобильного) мониторинга» раскрываются практические результаты открытости по формированию, распределению и исполнению бюджетных средств. Во взаимосвязи с полномочиями контрольных институтов, закрепленных в Бюджетном кодексе (Счетная палата, финансовые органы, казначейство), предлагаются измеримые индикаторы оценки прозрачности и контроля, а также формулируются практические рекомендации по укреплению исполнительной дисциплины и подотчетности.

Ключевые слова: Цифровое фискальное управление, прозрачность бюджета, Open Budget, казначейство, контроль, Счетная палата.

Abstract. This paper provides a systematic analysis of how digital fiscal governance in Uzbekistan enhances state budget transparency and improves the effectiveness of public financial control. Drawing on OpenBudget reporting tools and “mobile monitoring” mechanisms, it highlights practical outcomes of openness across budget formation, allocation, and execution. Linked to the Budget Code’s control architecture (the supreme audit institution, finance authorities, and treasury oversight), the study proposes measurable indicators for assessing transparency and control performance and formulates actionable recommendations to strengthen compliance, execution discipline, and accountability.

Keywords: Digital fiscal governance, budget transparency, Open Budget, treasury, oversight, Supreme Audit Institution

Kirish. Raqamli transformatsiya davlat moliyasini boshqarishda texnologik yangilanishdan ham kengroq boʻlib, budjet jarayoni endilikda faqat rejalashtirish va ijro intizomiga tayanadigan maʼmuriy amaliyot emas, balki maʼlumotlar (data) asosida boshqariladigan, kuzatiladigan va hisobdorlikka yoʻnaltirilgan kompleks tizimga aylanmoqda. Ushbu yoʻnalish “raqamli fiskal boshqaruv” konsepsiyasi orqali izohlanib, u davlat budjeti siklining barcha boʻgʻinlarini rejalashtirish, tasdiqlash, ijro, hisobot va auditni raqamli platformalar hamda axborot tizimlari asosida integratsiyalashni nazarda tutadi. Integratsiya kuchaygani sari fiskal boshqaruvda axborot assimetriyasi qisqaradi, budjet mablagʻlarining harakati boʻyicha raqamli izlar (audit trail) kengayadi va nazoratning profilaktik (oldini oluvchi) komponenti kuchayadi. [1]


Oʻzbekistonda budjet shaffofligini taʼminlash va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish yoʻnalishida Open Budget platformasi muhim institutsional mexanizm sifatida shakllandi. Platformada hisobotlarning eʼlon qilinishi budjet maʼlumotlari ochiqligini taʼminlash bilan bir qatorda, jamoatchilik kuzatuv uchun faktik asos yaratadi. Yaʼni fuqarolar, tadqiqotchilar va OAV budjet ajratmalari va ijro boʻyicha axborotga yaqinlashar ekan, fiskal jarayonda hisobdorlikka boʻlgan talab ham kuchayadi. [2] Shu bilan birga, ochiqlikning real natijaga aylanishi nazorat institutlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ochiq maʼlumotlar nazorat uchun resurs, nazorat esa shaffoflikni ijro intizomi va javobgarlikka aylantiruvchi mexanizmdir. Budjet kodeksi doirasida nazorat subyektlari (Hisob palatasi, moliya organlari, gʻaznachilik boʻlinmalari) vakolatlarining belgilanganligi raqamli fiskal boshqaruvning huquqiy tayanchini yaratadi. [1]

Mazkur sharoitda raqamli fiskal boshqaruvning budjet shaffofligi va moliyaviy nazorat samaradorligiga taʼsirini ilmiy asosda baholash dolzarb vazifaga aylanadi. Amaliyotda koʻpincha portal mavjudligi yoki hisobotlar eʼlon qilinganligi shaffoflikning yetarli mezon sifatida talqin qilinadi. Biroq ilmiy yondashuv shaffoflikni oʻlchash, taqqoslash va boshqaruv qarorlariga bogʻlash uchun indikatorlar tizimini talab qiladi. Shu sababli ushbu maqolada Open Budget hisobotlari va monitoring mexanizmlari hamda Budjet kodeksida belgilangan nazorat arxitekturasida shaffoflik va nazorat samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi oʻlchovli indikatorlar hamda amaliy tavsiyalar shakllantiriladi. [4]

Maqolaning **maqsadi** sifatida Oʻzbekistonda raqamli fiskal boshqaruvning davlat budjeti shaffofligi va davlat moliyaviy nazorati samaradorligiga taʼsirini tahlil qilish hamda ularni oshirish omillarini aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: birinchidan raqamli fiskal boshqaruvning shaffoflik va nazorat bilan bogʻliqligini nazariy jihatdan asoslash; ikkinchidan Budjet kodeksi doirasida nazorat institutlari vakolatlarini tizimlashtirish; uchinchidan Open Budget maʼlumotlari asosida baholash indikatorlarini ishlab chiqish; toʻrtinchidan raqamlashtirish jarayonidagi cheklolar va risklarni ajratish hamda amaliy tavsiyalarni taklif etish. [1]

Asosiy qism. Raqamli fiskal boshqaruvning amaliy mohiyati budjet jarayonini koʻrinadigan va izchil kuzatiladigan holatga keltirish orqali shaffoflik hamda nazorat samaradorligini bir vaqtning oʻzida kuchaytirishdan iborat. Bu jarayonda shaffoflik oddiy eʼlon qilish bilan cheklanmaydi. Unda budjet mablagʻlarining harakati (reja → ajratma → majburiyat → toʻlov →

natija → hisobot) bo'yicha mantiqiy izchillikni ta'minlaydigan axborot arxitekturasini sifatida namoyon bo'ladi. Nazorat esa yakuniy tekshiruvdan ko'ra ko'proq profilaktika va joriy monitoringga (ex-ante, ongoing) yaqinlashadi. Bunday o'zgarishlar fiskal boshqaruvda tranzaksiya xarajatlarini (hujjat aylanishi, kelishuv, qayta tekshiruv) kamaytiradi va risklarni erta aniqlash imkonini kengaytiradi. [1]



1-rasm. Raqamli fiskal boshqaruvda shaffflik va nazorat samaradorligini baholash indikatorlari.

Yuqoridagi rasmda raqamli fiskal boshqaruvning ikki asosiy yo'nalishi shaffflik va nazorat o'rtasidagi bog'liqlik aks ettirilgan. Unga ko'ra, budjet shafffliigi shunchaki ma'lumotlarning portalda mavjudligi bilan emas, balki ularning strukturaviy yaxlitligi, davriyligi va reja–ijro–hisobot zanjiridagi izchilligi bilan o'lchanadi. Nazorat samaradorligi esa tekshiruvlar soni bilan emas, balki xatoliklarni erta aniqlash (profilaktika) darajasi va jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish (sayyor-monitoring) imkoniyati bilan baholanadi. Ushbu yondashuv nazoratni jazolovchi vositadan oldini oluvchi tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Budjet shafffliigi amaliyotda uchta bog'langan kanal orqali kuchayadi. Bular budjet ma'lumotlarining ochiqligi, jamoatchilik ishtiroki va hisobdorlik mexanizmlaridir. Open Budget platformasidagi hisobotlar bo'limi shaffflikning birinchi kanalini axborot ochiqligini tizimli ravishda qo'llab-quvvatlaydi. Platformada "tashabbusli budjet" doirasida shakllangan hisobotlar ochiq e'lon qilinishi, kamida yillar kesimida jamlanishi va jamoatchilik uchun kuzatuv imkoniyatini berishi shaffflikni epizodik axborotdan tizimli ochiqlikka olib chiqadi. [2] Mazkur ochiqlikning boshqaruv qiymati shundaki, u axborot assimetriyasini qisqartiradi. Bunda manfaatdor tomonlar (fuqarolar, tahlilchilar, OAV) budjet ijrosi haqida mustaqil xulosa chiqarish imkoniga ega bo'la boshlaydi, natijada ijro intizomi va hisobdorlikka talab kuchayadi.

Biroq shaffflikning real boshqaruv natijasiga aylanishi ma'lumot sifatiga bevosita bog'liq. Hisobotlar mavjudligi zarur shart, ammo yetarli shart emas. Yetarlilik uchun hisobotlar strukturaviy bo'lishi, davriy yangilanib borishi, taqqoslash imkonini berishi, metodologik izchillik va izohli taqdimotga ega bo'lishi lozim. Aks holda ochiqlik formal tus olib, tahlil va nazorat signallariga aylanmaydi. Shuning uchun shaffflikni "portal bor-yo'qligi" bilan emas, balki o'lchovli indikatorlar orqali baholash maqsadga muvofiqdir. Indikatorlar shaffflikni o'lchanadigan mezonga aylantiradi va boshqaruv qarorlariga bog'laydi. [2]

Nazorat samaradorligi nuqtayi nazaridan Budjet kodeksi O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratining institutsional arxitekturasini belgilaydi. Bunda Hisob palatasi, moliya organlari va g'aznachilik bo'linmalari nazoratning turli bosqichlarida vakolatli subyektlardir. [1] Raqamli fiskal boshqaruv sharoitida ushbu institutlar faoliyatiga audit, tezkor monitoring va avtomatlashtirilgan muvofiqlik tekshiruvlari singari elementlar kirib keladi. Ayniqsa g'aznachilik darajasida profilaktik

nazoratning kuchayishi boshqaruv natijalariga eng tez ta'sir qiluvchi yo'nalishdir. To'lov va majburiyatlar bo'yicha limitlar, tasnif kodlari, rekvizitlar, maqsadlilik va hujjat to'liqligi raqamli qoidalar asosida tekshirilsa, xatolik va nomuvofiqliklar pul chiqishidan oldin aniqlanadi. Bu esa nazorat xarajatini kamaytiradi, tekshiruv tezkorligini oshiradi va budget intizomini mustahkamlaydi. [6] Open Budget doirasida "sayyor-monitoring" mexanizmining joriy etilishi shaffoflik–nazorat bog'liqligini yanada kuchaytiradi. Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi tomonidan e'lon qilingan axborotga ko'ra, "sayyor-monitoring" bo'limi mobil ilova yordamida loyihalarning amalga oshirilishini kuzatish imkonini beradi. [3] Bu, shaffoflikni faqat hisobot (ex-post) bilan cheklab qo'ymasdan, ijro jarayonining o'zida (ongoing) monitoring qilishga yaqinlashtiradi. Platformadagi tegishli kommunikatsiya materiallari ham ushbu yondashuvning amaliy maqsadini "har bir loyiha nazoratda" tamoyilini kuchaytiradi. [4] Natijada jamoatchilik ishtiroki (nazorat signallari) va institutsional nazorat (profilaktika) bir-birini to'ldiradigan mexanizmga aylanadi.

Mazkur mantiqni boshqaruv uchun amaliy ko'rinishga keltirish maqsadida maqolada shaffoflik va nazorat samaradorligini baholash indikatorlari taklif etiladi. Ushbu indikatorlar shaffoflikni nazoratga, nazoratni esa natijaga yo'naltirilgan boshqaruvga bog'laydi. Shuningdek, raqamli fiskal boshqaruvning samaradorligi bir qator cheklovchi omillar bilan ham belgilanadi. Birinchidan, ma'lumot sifati past bo'lsa, shaffoflik indikatorlari formallashadi. Bunda hisobotlar bor, biroq ular boshqaruv xulosasiga yetaklamaydi. Ikkinchidan, institutlararo koordinatsiya sust bo'lsa, ma'lumotlar bir-biriga mos kelmaydi, natijada taqqoslash va nazorat qiyinlashadi. Uchinchi omil esa inson kapitali bo'lib, raqamli savodxonlik, ijro intizomi va ma'lumot kiritish madaniyati shakllanmasa, platformalarning boshqaruv qiymati pasayadi. To'rtinchidan, kiberxavfsizlik: fiskal ma'lumotlar bilan ishlashda xavfsizlik talablarining izchil bajarilishi raqamli boshqaruvning uzluksizligini ta'minlaydi. [1]

Xulosa. O'zbekistonda raqamli fiskal boshqaruv budget jarayonini ochiq, kuzatiladigan va hisobdor tizimga aylantirish orqali davlat budjeti shaffofligi hamda davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirish uchun institutsional imkoniyat yaratmoqda. Open Budget platformasidagi hisobotlar budget mablag'larining ajratilishi va ijrosi bo'yicha ochiq axborot qatlamini kengaytirib, jamoatchilik kuzatuvining faktik asosini shakllantiradi. [2] "Sayyor-monitoring" mexanizmi shaffoflikni jarayoniy nazorat bilan bog'lab, ijro bosqichida risklarni erta aniqlash va profilaktika choralari kuchaytiradi. [3] Budget kodeksida mustahkamlangan nazorat arxitekturasi esa raqamli boshqaruvning huquqiy tayanchini ta'minlab, nazoratni ex-post tekshiruvdan ko'ra ex-ante va joriy monitoring logikasiga yaqinlashtirish imkonini beradi. [1]

Biroq raqamli platformalar mavjudligi o'z-o'zidan yuqori shaffoflik va kuchli nazoratni kafolatlamaydi. Bunda ularning boshqaruv natijasiga aylanishi ma'lumotlar sifati, standartlashtirish, institutlararo koordinatsiya, inson kapitali va kiberxavfsizlik kabi omillar bilan belgilanadi. Shu sababli shaffoflikni "hisobot e'lon qilingan-qilinmagan" bilan emas, balki hisobotlarning qamrovi, davriyligi, strukturaviyligi va taqqoslanish imkoniyati orqali, nazorat samaradorligini esa profilaktika effekti, tezkorlik, audit izlari va monitoring integratsiyasi orqali baholash maqsadga muvofiq.[6]

Amaliy tavsiyalar nuqtayi nazaridan, birinchi navbatda Open Budget orqali e'lon qilinadigan hisobotlarning sifat standartlarini kuchaytirish, ularni metodologik izohlar bilan birga, qayta ishlashga yaroqli strukturaviy formatda taqdim etish zarur; bu shaffoflikni formal ochiqlikdan boshqaruv resursiga aylantiradi. [2] Ikkinchidan, g'aznachilik darajasida profilaktik nazoratni raqamli qoidalar (limit, tasnif, rekvizit, maqsadlilik) asosida chuqurlashtirish, xatoliklarni "pul chiqishidan oldin" bartaraf etish orqali nazorat xarajatlarini kamaytiradi va ijro intizomini mustahkamlaydi. [1] Uchinchi yo'nalish sifatida, "sayyor-monitoring" natijalarini budget ijrosini baholashning amaliy indikatorlariga bog'lash, monitoring signallarini tezkor boshqaruv qarorlariga aylantirish, shuningdek monitoring va hisobotlarni uyg'unlashtirish hisobdorlikni kuchaytiradi. [4] To'rtinchidan, institutlararo koordinatsiyani kuchaytirish uchun ma'lumot almashinuvi standartlari va protokollarini soddalashtirish hamda audit izlarini to'liq saqlash mexanizmlarini mustahkamlash zarur. [1] Nihoyat, fiskal ma'lumotlar bilan ishlashda kiberxavfsizlik talablarini tizimli

integratsiyalash kirish huquqlarini qat'iy differensiallash, loglar va audit izlarini himoyalash, zaxira nusxalash siyosatini kuchaytirish raqamli fiskal boshqaruvning uzluksizligini ta'minlaydi. [3]

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. (2014). <https://lex.uz/docs/-2304138>
- [2] "Tashabbusli budjet" bajarilishi bo'yicha hisobotlar. <https://openbudget.uz/boards/reports>
- [3] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. "Ochiq budjet" portalida "sayyor-monitoring" bo'limi ishga tushirildi. <https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/ochiq-budjet-portalida-sayyor-monitoring-bolimi-ishga-tushirildi>
- [4] "Tashabbusli budjet" da har bir loyiha nazoratda! (sayyor monitoring bo'yicha). <https://openbudget.uz/portal/news/tashabbusli-budjet-da-har-bir-loyiha-nazoratda>
- [5] O'zbekiston Respublikasining 2025-yil Davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>
- [6] Inomjon Jumaniyazov, & Eldor Toshmamatovich Abrammatov (2025). Davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etishda g'aznachilikning roli va huquqiy bazasi. Science and Education, 6 (8), 124-131. <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-moliyaviy-nazoratini-samarali-tashkil-etishda-g-aznachilikning-rol-i-va-huquqiy-bazasi>

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].